

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA‘LIM YO‘NALISHI  
III KURS TALABASI SALOMOVA ZILOLA**

# **KURS ISHI**

**MAVZU: MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA  
PSIXOLOGIK MASLAHATNI TASHKIL ETISH**

**Tekshirdi:**

**A.Nazarov**

**Buxoro - 2016**

# **MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK**

## **MASLAHATNI TASHKIL ETISH**

### **REJA:**

#### **Kirish**

#### **I-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHATNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. O'zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holati va asosiy yo'nalishlari

1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi va uning ahamiyati

#### **II-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK MASLAHATNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI**

2.1. Psixologning maktabgacha tarbiya muassasalaridagi tutgan o'rni

2.2. Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalari, ota-onalari va tarbiyachilarining psixologga qiladigan murojaati

#### **XULOSA**

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlar inson omili muammosini yanada chuquroq va izchil ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston xalqining rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatga kirishuvi har jixatdan etuk kishilarni kamol toptirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda fan va texnikani yuqori saviyada egallash, jaxon standarti darajasiga yaqinlashtirish uchun mustaqil fikrlovchi yoshlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida - “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da oliy maktab talabalari oldiga ulkan vazifalar qo‘yilgan, ularning komil inson bo‘lib etishishlari uchun esa umuminsoniy va milliy ma’naviyat hamda qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni yangi texnika, texnologiya bilan qurollantirish lozim. O‘qituvchi, ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo‘lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta’lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, tahsil olishning davlat standartini ixchamlashtirishni yuzaga keltirish mumkin. Har bir shaxsning kamolotida jismoniy, axloqiy va aqliy etuklikning tarkiblariga alohida e’tibor berish joiz.

Komillika erishishning jismoniy, axloqiy, tarkiblarini yoshlar tomonidan egallash aqliy darajaga etishdan osonroq kechadi. SHuning uchun aqliy (intellektual) rivojlanish maxsus ta’sir o‘tkazishni va yangi pedagogik texnologiyadan foydalanishni talab etadi. Bilimlarni o‘zlashtirish aynan aqliy kamolotni anglatmaydi, balki uning bir mezonini bajaradi, xolos. Bolalarni mashg‘ulotlar jarayonida va undan tashqari paytlarda ham aqlan rivojlantirish, maxsus ta’limiy usullarga o‘rgatish, omilkor yo‘llar bilan muammolarni echishga, fikr yuritishga, mustaqil ijodiy izlanishlarni amalga oshirishga tayyorlash lozim. Bolalarni komil inson qilib shakllantirish uchun, eng avvalo ularni intellektual jixatdan yuksak darajalarga erishishlari uchun puxta zamin tayyorlash lozim.

## **I-BOB. PSIXOLOGIK MASLAHATNING NAZARIY ASOSLARI.**

### **1.1. O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holati va asosiy yo‘nalishlari**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi tufayli barcha sohalarda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar uzluksiz ta’lim tizimiga ham tegishli bo‘lib, maktabgacha ta’lim zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu bois ta’lim tizimining ilk bo‘g‘iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o‘quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan.

Ma’lumki, psixologiya fanida aynan psixologik xizmat muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha yo‘nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar etarli bo‘lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqodlarni alohida qayd etish mumkin.

Psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o‘z mehnati mahsullaridan ijtimoiy konikish jarayonini tahlil qilish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarning o‘rni va istiqboliga ham alohida e’tiborni qaratish lozim, deb o‘ylaymiz. Masalan, F.Xertsberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. Mazkur izlanish mahsuliga ko‘ra mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o‘z-o‘zini bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e’tibor berilsa shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo‘lgan mehnat sharoiti yaratilsa shaxs faolligiga salbiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga

nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat mahsuli ham insonning o'z faoliyatidan ijtimoiy ma'nodagi qoniqishi ham nixoyatda past saviyada bo'ladi. Psixologik xizmat esa, bizningcha, xuddi ana shu erda o'z ta'sirini, ya'ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini ma'lum darajada yuqori saviyaga ko'tara olish san'atini ko'rsatishi lozim.

Bolalarining mehnatdan qoniqish muammosi ustida olib borilgan ayrim tadqiqotlar natijasi psixologik xizmatning metodologik modelini loyihalashtirishga xizmat qilsa ajab emas. Masalan, shaxs faoliyatiga individual yondashuv yo'nalishi bilan bog'liq psixologik xizmatning ma'lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tatbiqiy jihatdan asoslab beruvchi olim N.S.Leytes ma'lumotlariga qaraganda, asab tizimi nisbatan kuchsiz bo'lgan kishilarda ko'pincha bir xildagi ishning bajarilishida ma'lum afzalliklar borligi aniqlangan: ularning yuqori sezgirligi ta'sirlanuvchanlik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulotda va kuchli qo'zg'aluvchilar asosida namoyon bo'luvchi vaziyatlarda kuchsiz tipdagi kishilar aynan o'zlarining fiziologik xususiyatlariga ko'ra ishni uddalay olmay qolishlari mumkin.

Chunonchi, asab tizimi tipi ancha kuchli bo'lgan kishilar bir xil, ancha sust tipdagi kishilar esa boshqa xil vazifalarni bir muncha oson hal qiladilar. Asab tizimining kuchi bo'yicha farqlanadigan kishilar bir xildagi vazifani hal etishga ko'pincha har xil yo'llar bilan borishlari kerakligini N.S.Leytes o'z asarlarida har tomonlama asoslab berdiki, bu - psixologik xizmatda hisobga olinishi mumkin bo'lgan muhim jarayondir. Zero, faoliyat unumdorligi insonning o'z potentsial imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanishning mahsulidir.

Umuman, yuqorida qayd etilgan olimlarning umumiy fikr-mulohazalariga ko'ra individual uslubning shaxsda darrov paydo bo'lmasligi, balki ko'pincha stixiyali tarzda (ya'ni, individual-hissiy asab sifatleri yordamida) paydo bo'lishi qayd etiladi. Demak, har bir shaxsga psixologik xizmat davomida o'z imkoniyatlari va faoliyat talabi uyg'unligini ta'minlash yo'llarini izlash asosida yondashilsa mazkur shaxs faoliyatidagi individual uslubning tarkib topishi tobora

rivojlanib, takomillashib boradi. Bu esa, o'z navbatida shaxs va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi.

V.M.Rusalov tadqiqotlarida ijtimoiy psixologiya uchun muhim bo'lgan hamkorlik faoliyati muvaffaqiyati ma'lum jihatlari bilan individual uslub imkoniyatlariga ham bog'liq ekanligi qayd etilib, "xolerik" temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganga qaraganda "flegmatik" va "melanxolik" bilan birgalikda ishlagan xollarda ancha samarali bo'lishi empirik ma'lumotlar asosida tadqiq qilinadi.

Demak, maktabgacha ta'lim muassasasidagi amaliy psixolog har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orqali ijtimoiy-psixologik yutuqlarga erishishi mumkin. Mazkur tadqiqotlarning ta'lim va mehnat faoliyati muvaffaqiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan kuzatishlarimiz natijalari ham tasdiqladi va bu esa har bir shaxsni faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan himoyalaniş quroli sifatida har bir bola uchun xarakterli bo'lgan individual uslub mezonlarini ishlab chiqish va uning psixologik xizmat jarayonida yanada takomillashtirish yo'llarini izlashga da'vat etdi.

K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog'liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, u ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo'lgan shaxsni nafaqat o'zining individual xususiyatlari asosida, balki bu individual xususiyatlarning ijtimoiy mazmuni - o'z-o'zini adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqarrarlitgini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Professorlar: E.G'oziev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarurligi uqtiriladi:

- inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muxiti omillari);

- insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki konuniyatlari, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya;

- inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi. Darhaqiqat, har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruxiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbollari mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda.

Bunday shart-sharoit esa har bir shaxsning umumiy va maxsus individual imkoniyatlari ko'lamini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish va tobora kamol toptira borish yo'llarini izlash asosidagina qaror toptirilishi mumkin.

Demak, shaxs faolligi, avvalo, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlari ko'lamidan unumli foydalana olishga intilish jarayoni ekanki, bu jarayonni muntazam ravishda o'rganish va rivojlantira borish shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanmog'i muqarrar. Umuman, shaxs faolligini tushunish, tushuntirish va ilmiy jihatdan asoslashga bag'ishlangan va ayni paytda psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun muhim bo'lgan izlanishlarni shartli ravishda ma'lum yo'nalishlarga bo'lish mumkin. Zero, har bir yo'nalish tadqiqotchilari shaxs faolligini u yoki bu g'oyada turib tahlil qiladilar va tegishli xulosalar chiqaradilar. Tadqiqotlarimizni amalga oshirishda esa biz ushbu yo'nalishlarda qayd etilgan nazariy-ilmiy xulosalarni ma'lum darajada metodologik asos sifatida qabul qildik.

Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan mazkur fikr-mulohazalar psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy

yoʻnalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, Oʻzbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini oʻrganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiiy va amaliy-uslubiiy tadqiqotlar koʻlamiga maʼlum tartibda baho bermay turib, Oʻzbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib boʻlmaydi.

Oʻzbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30- yillaridagi pedalogiya fani va pedalogik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Shuningdek, 60-70 yillarda Oʻzbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.SH.Rasuleva, M.Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini oʻrganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, 1966 yilda CHirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid, 1973 yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin (Bu haqdagi batafsil maʼlumotlarni OʻzPFITI Arxivida saqlanuvchi shu yillardagi hisobotlar hujjatidan olish mumkin).

Yuqorida keltirilgan misollar, tahlillar va xulosalardan koʻrinadiki, Oʻzbekistonda psixologik xizmatni takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, bu – amaliyotchi psixologlar tayyorlash har tomonlama puxta va muvaffaqiyatli tarzda ishlab chiqishdir. CHunki, barcha sohalarda malakali mutaxassislardan saralangan va puxta tayyorlangan psixologlar safini ham son jihatdan, ham sifat jihatdan kengaytirmay turib, psixologik xizmat tizimining amaliy faoliyatdagi tatbiqini Respublika miqyosida keng koʻlamda amalga oshirib boʻlmaydi.



O'zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holatiga tavsif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz xotimasi O'zbekistonda psixologik xizmat tizimini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi. Chunki, psixologik xizmat tizimining Respublika miqyosidagi keng qamrovli ilmiy-amaliy yo'nalishlarini belgilamay turib Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. SHunga muvofiq, barcha sohalardagi hozirgi zamon ilg'or psixologik adabiyotlarga va tadqiqotlarga tayanib psixologik xizmatning asosiy amaliy yo'nalishlari va uning ilmiy-tashkiliy ish jihatlarini o'rganish borasida ma'lum izlanishlar olib borildi. Shuningdek, barcha yo'nalishlar uchun umumiy va juz'iy bo'lgan ijtimoiy psixologik holatlar, vazifalar va tadqiqotlar ko'lami va ularni amalga oshirish yo'llari belgilandi.

## **1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi va uning ahamiyati**

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta, bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davri yoshlarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yildagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini

mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortyib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqary harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katga odamlar va tengdrshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib uynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. SHuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa

xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qartsshlik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- ***birinchidan***, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. SHuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

-*ikkinchidan* esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar, Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va aqliy jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir, o'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi, demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir, SHunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha; bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan narsadir. SHuni ham ta'kidlash joizki, fan-

texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya’ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi passiv jarayon emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi,

Bolalar o‘yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi, Albatga, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kichik gurux bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni o‘rta yoki katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O‘zgacha qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o‘yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. SHuning uchun bolalarning

o‘yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolg‘iz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o‘yinlarda bolalar, asosan, o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yini asta-sekinlik bilan jamoa shaklidan xislatlarga ega bo‘lib boradi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o‘yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o‘yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko‘proq o‘zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o‘yini o‘laylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stantsiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yini har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yin, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. SHuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. CHunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuammolilik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysunish va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Katta bog‘cha yoshida syujetli-rolli o‘yinlar esa endi o‘z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san’atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrofni, hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar

chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yoshlik davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari haqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchog'i masalasiga ham to'xtab o'tish kerak. Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak. Ma'lumki, 1-3 yoshdagi bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirgan bo'ladilar. Ular hali ko'p narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. SHuning uchun ularga qo'g'irchoq bilan birga har xil rangli qiyqim, lahtak matolar ham berish kerak. Ayniqsa, qiz bolalar o'z qo'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar, o'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoqlarni berish foydalidir.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyagiga tayyorlaydi, odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, etarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quvlar va

sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar berish lozim, rangli kiyimlar berish, rangli xadqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar. Bog'cha yoshidagi bolalarning turli narsalarni idrok qilishida ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarini analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarini idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning uz oldiga quygan yangi talablari asosida takomillasha boradi va shuning uchun ular o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. SHuningdek, bu yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, **birinchidan**, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan



ko‘payishi, **ikkinchidan**, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo‘lishi, **uchinchidan** esa, bog‘cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Bog‘cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so‘na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi, ko‘pgina ot-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «*ko‘p mahmadona bo‘lma*», «*sen bunday gaplarni qaerdan o‘rganding*, deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va sayohatlarda kattalarning o‘zlari savol ham berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi, bog‘cha yoshi davrida bolaning nutqi ham mikdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqining o‘sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq.

**Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.** Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- ***birinchi davr*** - bu 3-4 yosh oraligida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir;
- ***ikkinchi davr*** - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish;
- ***uchinchi davr*** esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qatbiylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin.

Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar, Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi.

3-3,5 yoshlar oralig'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «*Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?*», «*Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?*» singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta

bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishda foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomonchligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi. SHuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga *jismoniy* jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganlik sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, o'zo'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Keyingisi bolaning *aqliy tayyorgarligidir*. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning ma'lum bir dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishni nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy

mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin ularga xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi?", "Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz maktabdagi bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi", "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "YOzishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni echishni o'rganaman". Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta,

Bolaning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy uzgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

## **II BOB. BOLANI TARBIYALASHDA OILA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGINI AMALIY JIHATDAN TADQIQ ETISH**

### **2.1. Oilada tarbiya jarayonida bola xususiyatlarini amaliy jihatdan tadqiq etish**

Ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimining muvafaqiyati ushbu tizimda psixologik xizmatning har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tadbiiq etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'pgina maorif xodimlarining diqqat e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Porloq kelajagimiz poydevorini, albatta yuksak ijtimoiy bilimlar majmuasi bo'lmish ta'lim -tarbiyasiz va uning ravnaqisiz ko'rib bo'lmaydi. Ta'limning rivojlanishi barcha fanlar kabi pedagogika va psixologiya fanlari oldiga ham qator vazifalarni qo'yimoqdaki, bu vazifalarni bajarish jarayoni va imkoniyatlari O'zbekiston Prezidenti va O'zbekiston Xalq Ta'limi Vazirining qator ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan. Binobarin, ta'lim muammolari insonning bilish, shaxsning ijtimoiy jarayonlarni anglab etishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim jarayonining psixologik tahlilga bag'ishlangan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'quv tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi hal qilishi va bartaraf etishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud. Fikrimizning dalili sifatida qo'yidagi yo'nalishlarga alohida to'xtalmoqchimiz:

1. Bolalarni ruhiy va intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish muammosi: Olimlar kuzatishlarining natijasi shuni ko'rsatadiki, olti, etti yoshga kirgan hamma bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylanib bormoqda. Psixologlar esa hech qachon bunga yo'l qo'ymasliklari kerak. Sababi: har bir bola ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega. Ba'zi bolalar olti, etti, hatto sakkiz yoshga to'lsalarda maktab ta'limini boshqa o'z tengdoshlari qatori o'zlashtirishga hali tayyor bo'lmaydilar. Biz esa ularni maktab rejasiga qarab, ba'zan ota onasining xohishiga qarab maktabga qabul qilaveramiz, ta'limiy mashg'ulotlarni esa bolaga majbur olib boramiz. Natijada, bola psixik jihatdan turli kasalliklarga yo'liqib, keyingi o'quv faoliyati

bosqichlarida muvaffaqiyatsizliklarga uchrashi mumkin. Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiiy rivojlanish ildiziga ataylab bolta urish demakdir. Bunday holatlarda zudlik bilan barham berish, ya'ni har bir maktab ta'limiga ilk bor qadam qo'ygan bolani maxsus va mukammal ishlab chiqilgan psixologik testlardan o'tkazish va uning natijalari asosidagina bolani maktabga qabul qilish haqida jiddiyroq va o'ta mas'uliyat bilan o'ylashimizga to'g'ri keladi. Qolaversa, bunday testlar yordamida allaqachon rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Germaniyada ba'zi bolalar 9 yoki 10 yoshdan, ba'zilari esa hatto 4 yoki 5 yoshdan ham maktabga qabul qilinadi va tegishli sharoitlar yaratilgach, ta'lim jarayonida bunday bolalarning barcha shaxsiy va ruhiy imkoniyatlaridan to'liq va unimli foydalanish uchun zamin hozirlanadi.

Tabiyki, bola kamoloti uchun maktab va oila hamkorligidagi tadbirlar hamisha muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, ba'zi hollarda maktab tarbiyasi bilan oiladagi tarbiya muhiti nihoyatda bir -biriga zid ekanligi bilan bolani qiynab qo'ymoqda. Bola qay biriga moslashishga hayron. Gap shundaki, bolani chuqur o'rganish uchun uning oilasini ham chuqur psixologik tahlil qilishga to'g'ri keladi. Aftidan, bolaning to'liq psixologik imkoniyatlari haqida ota-onalarga ma'lumot berish bilan birga ota -onalar oldiga ham bola tarbiyasi uchun tegishli tashkilotlar bilan kelishgan holda ma'lum talablar qo'yish va uning ijrosini muntazam nazorat qilib borish haqida jiddiyroq o'ylashga to'g'ri keladi.

Bola shaxsini to'g'ri tushunish va tahlil kila olish muammosi: "Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir",-degan edi buyuk fiziolog I.P.Pavlov. Qolaversa, har bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniylar ham o'z zamonlarida alohida qayd etib o'tganlar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'lim olayotgan har bir individ o'ziga xos bir betakror olamdir. O'qituvchi esa ushbu shaxsni tarbiyalash uchun dastavval uning "betakror olamiga" kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi xalq ta'limi muassasalarining oldiga – yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimining muvafaqiyati ushbu tizimda psixologik xizmatning har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tadbiq etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'pgina maorif xodimlarining diqqat e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Porloq kelajagimiz poydevorini, albatta yuksak ijtimoiy bilimlar majmuasi bo'lmish ta'lim-tarbiyasiz va uning ravnaqisiz ko'rib bo'lmaydi. Bog'cha bilan xayrlashib, birinchi marta maktabda qadam qo'yadigan birinchi sinf o'quvchilarining maktabga borganda maktab talablariga sharoitlariga moslashish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Amalda moslashish vaqti xamma bolalarda ham bir xilda samarali o'tmasligi mumkin. Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota - onalar arzlaridagina emas, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmoqda. Masalan, ota-onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xoxlamayotganini, uning tutqich bermasligi, juda asabiy bo'lib qolganini aytishsa, o'qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligida, tartibsizligida, tengdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmoqda. Bunday bolalarda asabiy ruxiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda o'qishga qanchalik tayyor bo'lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o'tadi. Psixologlar bolaning maktabda o'qishga tayyor deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar. O'qishning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf o'quvchilari bilan, olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat.

- a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash;
- b) bu bolalarda psixologik yordam ko'rsatish.

Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik ko'rsakichlarini aniqlash lozim. Ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lishi mumkin;

- 1) O'quv materialini o'zlashtirishda

2) O'qituvchi talablarini bajarishda qiynalish, o'quv vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik xususiyatlari xarakter aktivligining o'zgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, o'qishga, maktab hayotiga qiziqishlari, o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga erishishlaridagi qiyinchiliklaridir. Bolani xar tomonlama psixologik tekshirib, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko'rsatishi mumkin. Maktablarda "Moslashish" sinflarning ochilishi bu muammoni hal qilishga oz bo'lsada imkon beradi. Psixolog tuzatish metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishga ijobiy ta'sir etadigan faktorlarni, ya'ni o'quvchini o'zini to'g'ri baxolashi oilada to'g'ri tarbiyalanishi oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani xurmat qozonishi hisobga olish lozim. Maktab psixologining o'zlashtira olmovchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boradigan ishlari uning faoliyatidagi amaliy yo'nalishi tashkil etiladi. Psixolog bunday o'quvchilar bilan olib boradigan ishining asosiy yo'nalishlari haqida gapirishdan oldin o'zlashtira olmaslik sabablarini ko'rib chiqamiz. Maktabgacha yosh davrdan maktab yoshi davriga o'tish ancha qiyin kechadigan davrdir. Etti yoshdagi qiyinchilik bu shunday keskin burulish yoshiki, unda maktab yoshining barcha davrlari o'z ifodasini topadi. Odatda maktabda borish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat.

Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishning yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o'z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdan psixogen buzilishi bolalar sinfda o'qishdagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko'rsatadilar.

(Ruxiy omillar) ta'siri ostida kelib chiqadigan kasallik psixogen kasalligidir. Mazkur kasallik bolaning maktabda, oilada ob'ektiv va sub'ektiv mavqeining buzilishida ta'lim tarbiya jarayonining qiyinlashuvi xamda uning shaxsda psixogenning tarkib topishida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi qiyinchiliklarning aloxida olingan sabablaridan kelib chiqib ularni tahlil qilish "Udda- lanilmayotgan" materiallarni masalan, yozuv yoki o'qishni bosh asos qilib olish keyin esa ularni keltirib chiqarayotgan omillarni ko'rib chiqish mumkin. Asosiy murakkablik shundaki, bir xil qiyinchilikning sababi turli iboralarda



turlicha bo‘lishi mumkin. Bolaga yondashishning eng maqsadga muvofiq yo‘li bu ta‘limning turli bosqichlarda ro‘y beruvchi qiyinchiliklarda bolaning funktsional xolatini va rivojlanishning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olishdan iboratdir. O‘qituvchi bolalarda uchraydigan xar qanday qiyinchilikni uning o‘zlashtirishi bilan bog‘laydi. Bunda bolani baxolash odatdagidek o‘ziga xos shaklda bo‘ladi, a‘lochi demak, yaxshi o‘quvchi, qoniqarsiz baho olsa yomon o‘quvchi. Mazkur shaklda xos choralar ko‘rilgan. Masalan, maktabda yomon o‘zlashtirgan o‘quvchining ota-onasi chaqirtiriladi, g‘azablangan o‘qituvchi ularga uz farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini, ular bilan kam shug‘ullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana xam achinarlisi o‘qituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani suqadi va kamsitadi. Ko‘pchilik xatoni eng tajribali o‘qituvchilar xam o‘zlashtirmasligi sababini o‘quvchining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baxolashga urinadilar. O‘qituvchi o‘zlashtirmaslikning xaqiqiy sabablari to‘g‘risida kamdan kam o‘ylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning o‘ziga xos chora tadbirlarini izlaydi. Shuning uchun quyida maktab psixologining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan amalga oshirish mumkin bo‘lgan psixologik tuzatish ishlarining ayrim jixatlarini ko‘rib chiqamiz.

Umuman psixologik xizmatga asoslangan ta‘lim jarayoni xar bir o‘quvchi kamolotiga, undagi barcha iqtidor qirralarini ochishga va rivojlantirishga xizmat qila olishi bilangina axamiyatlidir.

Taniqli ruxshunos olim L.S.Vigotskiy taraqqiyotdan ilgarilab ketgan ta‘limgina samarali bo‘lishini qayta- qayta ta‘kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirayotgan ishni ertaga o‘zi bajarishi kerak. Bunga bolani xar tomonlama rivojlanti- radigan, uni fikrlashga o‘rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o‘sib borishiga imkon yaratadigan tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan ta‘lim va tarbiyada, pedagogik usullarga, psixologik xizmat tizimiga ega bo‘lingan taqdirdagina erishish mumkin.

Psixologning ishi har qancha qiyin bo‘lishiga qaramay, uning jozibali, maroqli jihatlari juda ko‘p. Psixolog kasbining xarakterli belgilaridan yana biri

shuki, xalq va jamiyat oldida uning ma'naviy mas'uliyati juda yuksak darajada bo'ladi. Har narsani bilishga qiziqadigan, quvnoq, jo'shqin bolalar bilan muomala qilishning o'zi unga katta mamnuniyat baxsh etadi. Eng muhimi shuki, bu ish bilan shug'ullanmoq uchun odamda iste'dod, intilish va qiziqish bo'lishi lozim.

## **2.2. Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalari, ota-onalari va tarbiyachilarining psixologga qiladigan murojaati**

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydigan, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishi asos bo'lib xizmat qiladi. M: kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki xarakter va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan xarakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va

ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg‘ulotlardagi o‘quv faoliyati orqali bolalar tevarak atrofidagi tabiat to‘g‘risidagi, ijtimoiy hayot, kishilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar. SHuningdek ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Agar ta‘lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to‘g‘risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta‘lim berishda asosiy e‘tibor muhim bog‘liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat etakchi rol o‘ynaydi. SHuning uchun ta‘lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o‘ziga munosabat sistemasini izchil o‘zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro‘y beradi. Bunda bolalik va o‘smirlik yoshi ayniqsa muhimdir.

Bog‘cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. SHaxsiy muloqot motivlari - bu bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi- o‘zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o‘yinlarda asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qurqmasligida, nima bo‘lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi. Maktabgacha yosh davri

bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar, Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqat-e'tibor, mehribon bo'lishi xususiyatlidir. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

SHaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydigan, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan xarakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar

olamiga olib kiradilar. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak atrofidagi tabiat to'g'risidagi, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. SHuningdek ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat etakchi rol o'ynaydi. SHuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi. SHulardan kelib chiqib savol tug'iladi. Maktab-

gacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari psixolog yordamiga muhtojmi? Ha, aynan so'nggi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarimizda psixologik xizmat ommalashib bormoqda. Ayni vaqtda maktabgacha tarbiya muassasalarida ham amaliy psixologlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Yurtboshimizning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «Sog'lom avlod davlat dasturi» da 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning salomatligini mustahkamlash tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish masalasiga ko'proq ahamiyat berish zarurligining ta'kidlanishi maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologning ahamiyatini oshiradi. Zero, salomatlik tushunchasi nafaqat jismoniy, balki ayni bir vaqtda ruhiy salomatlik birligini

anglatadi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Sog'lom avlod deganda shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhiy fikri sog', imon- e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman».

Yaqin-yaqinlargacha bog'cha psixologi o'ziga xos noyob hodisalardan biri edi. Psixologni bu turdagi muassasalardagi vazifa va faoliyat yo'nalishi aniq ko'rsatilmagan edi. Eng muhimi, psixologlarning o'zi uchun ham bu front – bu tarmoqda qanday hodisa va muammolarga duch kelish mumkinligini aniq ravshan tasavvur etishga qiynalar edilar. SHuning uchun, hatto ularning o'zlarida ham «O'zi psixologga zarurat bormikan?» degan gumon paydo bo'lardi. Hozir ham ayrim bog'cha psixologlari muassasada o'z o'rinlarini topolmay qiynalayaptilar. SHuning uchun ular bog'chadagi o'z faoliyatlarining dastlabki bosqichini odatda metodikalar orqali bolalarni diagnostika qilishdan boshlaydilar. Shubhasiz, bu juda samarali faoliyat yo'nalishi. Bunda bolalarning umumiy rivojlanish darajasi aniqlanadi va mavjud muammolar ko'zga tashlana boshlaydi. Biroq diagnostika va uning natijalarini qayta ishlash ancha ko'p vaqt talab qilingani uchun bolalarning muammolari bilan shug'ullanishga vaqt deyarli qolmaydi.

Shuning uchun mutaxassislar maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan psixologlarga ishni dastlab unga yordam so'rab murojaat qilgan ota-ona va tarbiyachilarning murojaatini o'rganishdan boshlashni tavsiya etadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari va tarbiyachilarining psixologga qiladigan murojaatlari uning mazmuni va xarakteri xususida tadqiqot ishining navbatdagi paragrafida batafsil to'xtalamiz. Ishonamiz, ushbu murojaatlarni o'rganib, ularga o'z vaqtida javob berishi bilan psixologlar o'zini qanchalik kerakligini isbotlay oladilar.

So'nggi yillarda mutaxassislar shunday fikrdaki, ota-onalarning psixologga qiladigan murojaati biroz o'zgarib, aniqroq xarakter kasb etmoqda. Oxirgi paytlarda ota - onalarning amaliy psixolog yordamiga bo'lgan qiziqishi ancha ortdi. Psixologning oldiga konsultatsiya uchun keladigan ota - onalar sonining ortishi buni isbotlab turibdi. Ehtimol, ota - onalar sekin-sekin bola xulq - atvoridagi

ko'p narsalarga o'zlari sababchi ekanliklarini tushuna boshlaganliklari, his qila boshlaganliklari tufayli ularda psixologik xizmatga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Balki psixologik xizmatning xalq ta'lim tizimida ommalashishi va ilmiy ommabop adabiyotlarning ko'payib borayotgani ularni o'z farzandiga boshqacharoq qarashga majbur qilayotgandir? Xullas, nima bo'lganda ham psixologning yordamiga bo'lgan ongli ehtiyoj asta-sekin bo'lsa ham o'sib bormoqda.

Maktabgacha tarbiya muassasalarining psixologlari amaliyotida asosan ota - onalarning quyidagi bir necha guruhdagi murojaati uchraydi:

**Birinchi guruh** murojaatlari «muammoli murojaat» emas. Ular bilish xarakteriga ega. Ota - ona bolaning psixik rivojlanishini nazorat qilish kerakligini tushunib, psixologga farzandlarining psixik va aqliy rivojlanish darajasini aniqlab berish iltimosi bilan murojaat qiladilar. Bunday murojaatlarning ko'payishiga shubhasiz, birinchidan, so'nggi yillarda respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalik muammolariga, umuman bolalarning salomatligiga alohida e'tibor bilan qaralayotgani; Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalikning inson shaxsi shakllanishi va aqliy rivojlanishidagi ahamiyati haqidagi ilmiy ommabop kitoblar, gazeta - jurnallar maqolalari, maxsus televizion ko'rsatuvlarning ko'payib borayotganligi sababchidir. Bunday turdagi murojat bilan kelgan ota-ona aslida ko'pincha psixologdan bola normal rivojlanayotganligini tasdiqlatish uchun keladilar. SHuning uchun ular psixologning ta'kidlarini, maslahatlarini odatda e'tibordan chetda qoldiradilar. Ota-onalarning o'z bolalari psixik rivojlanish darajasini aniqlashga bo'lgan ishtiyoqi ortishining yana bir sababi ta'lim tizimining murakkablashishidir. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'sirida ko'plab ota-onalar farzandlarini ta'limga ancha erta tayyorlab borish kerakligini anglay boshladilar. Shu tufayli bo'lsa kerak, bolani 6 yoshdan maktabga berish muammosi bilan murojaat qiluvchi ota-onalar ancha ortdi. Psixologning bola 6 yoshdan maktabga borishi uchun uning qaysi bilish jarayonlarini rivojlantirish kerakligi haqida bergan maslahat va ko'rsatmalari ota - onalar tomonidan ancha katta e'tibor bilan qabul qilinmoqda.



**Ikkinchi guruh** murojaatlari bolalarning qobiliyatlarini aniqlab berish yuzasidan bo‘ladigan murojaatlaridan iborat. Xilma - xil bolalar to‘garaklari (musiqa, rasm chizish, ingliz tili va b.) ning mavjudligi, buning ustiga ba’zi adabiyotlarda bolalarning qobiliyatlari 3-4 yoshdayoq ma’lum bo‘ladi, degan ma’lumotlar ota-onalarni psixolog huzuriga etaklamoqda. Psixologning vazifasi bolani bu yoshda biror sohaga masalan, musiqa yoki matematikaga majburan intensiv o‘qitishning salbiy oqibatlarini tushuntirib, bola uchun ayni damda har tomonlama rivojlanish muhimligini ota - ona ongiga etkaza bilishga qaratilishi kerak. Biroq ayni vaqtda psixolog maktabgacha tarbiya muassasasida biror faoliyatga layoqati - qobiliyat nishonalari unib chiqayotgan bolalarni aniqlashga, ularning rivojlanishini kuzatishga, maxsus dastur asosida individual ish olib borishga o‘z e’tiborini qaratishi lozim.

**Uchinchi guruh** murojaatlariga bola xulqidagi og‘ishishlar tufayli ota - onalar qiladigan murojaatlari kiradi. Bunda ota - onalar asosan bolalarning agressivligi, tortinchoqligi, xayolparastligi, emotsional beqarorligi, asabiylashuvchanligi yuzasidan murojaat qiladilar. Bir narsa kishini tashvishga soladiki, bunday murojaatlar soni tobora ortib bormoqda. Bolalar xulqidagi og‘ishishlar asosida yotgan sabablarni psixologlar 3 turkumga ajratadilar:

a) ota - onalarning bola psixik rivojlanish qonuniyatlarini bilmasligi.

Rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik oqibatida ota - onalar bolalarga ularning yoshiga mos bo‘lmagan talablarni qo‘yadilar, inqiroz davrlaridagi xususiyatlarni esa xulq atvordagi og‘ishish deb baholaydilar. Bunday holda psixolog bola psixik rivojlanish xususiyatlarini yotig‘i bilan ota - onalarga tushuntirib qo‘yishi, ularga bola bilan bo‘lgan muloqot uslubini o‘zgartirish, unga qo‘yayotgan talablarga e’tiborliroq bo‘lishini tavsiya etishi lozim bo‘ladi:

b) bola xulq atvoridagi og‘ishishlarga shuningdek, asab psixik buzilishlar ham sabab bo‘lishi mumkin. Ular nevrozlar, psixosomatik kasalliklar, psixik rivojlanishda orqada qolish asoratlari bo‘lishi mumkin. Bu holda psixolog qo‘lidan kelgan yordamini ko‘rsatib, mutaxassis-psixonevrolog, nevropatolog, psixiatrga murojaat qilishni maslahat berishi kerak:

v) bolaning xulq-atvoridagi og'ishishlariga noto'g'ri oilaviy tarbiya sabab bo'lishi ham mumkin. Haddan tashqari ko'p erkatlash, qo'rqitish, og'ir jismoniy jazolar, befarqlik kabi ota-onalarning tarbiya bobidagi xatolari bola xulqidagi normadan chetga chiqishning sababiga aylanishi mumkin. Bunday holda bir marotaba beriladigan konsultatsiya bilan chegaralanib bo'lmaydi. Ota-onalar bilan muntazam tushuntirish ishlari olib borishga to'g'ri keladi. Shunisi qiziqki, noto'g'ri tarbiya oqibatlarini haqida so'nggi paytlarda qancha ko'p gapirilsa, tarbiyasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bolalar soni shunchalik ko'payib bormoqda. SHu tufayli profilaktika maqsadida maktabgacha tarbiya muassasa psixologi ota-onalar bilan olib boriladigan targ'ibot- tashviqot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish kerak. Bu borada o'ziga xos «Ota-onalar klubi»ni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachilar ham psixologga nisbatan kamroq bo'lsa-da murojaat qiladilar. Ularning murojaati aniq xarakter kasb etadi. Ko'pchilik tarbiyachilarni asosan agressiv yoki yomon o'zlashtiruvchi bolalar tashvishga soladi, chunki har ikki toifadagi bolalar bog'chadagi tarbiyaviy jarayonni qiyinlashtiradilar. Haddan tashqari tortinchoq, o'ziga ishonmaydigan bolalar tarbiyachilarning alohida e'tiborini talab qiladi, vaqt tanqisligi bois esa buning iloji bo'lmaydi shuning uchun tarbiyachilarni asosan boladagi u yoki bu xususiyatning psixologik mexanizmi rivojlantiruvchi mashq va o'yinlar, o'yinchoqlarni tanlashda nimaga ko'proq e'tibor berish haqidagi psixolog maslahati qiziqtiradi. Albatta, ota-onalar kabi tarbiyachilarni ham u yoki bu bolaning psixik rivojlanish darajasi qiziqtiradi. Zero, bunday ma'lumotlar tarbiyachilarga bolalar bilan ishlashda yordam beradi.

Ko'plab tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar muammosiga ham bag'ishlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar juda egiluvchan va ta'sirga beriluvchan ekanligini tasdiqlaydi. Bu davrda bolalar juda ko'p narsani o'zlashtirishi mumkin ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Ammo bolaning imkoniyatlari cheksiz emas, bola imkoniyatlari yosh va psixofiziologik xususiyatlar bilan chegaralangan. Avvalo shuni unutmaslik kerakki, bola bu davrda intensiv o'sayotgan bo'ladi.

## XULOSA

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqlol va istiqbol yo'lini ifodalovchi boshqa qator ma'ruzalari va asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir va aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini va ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu esa, avvalo inson ma'naviyati, ruhiyati va ijtimoiy kamoloti bilan shug'ullanuvchi psixologlar oldiga bir muncha jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida qaror toptirishga ko'maklashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Ta'limning muvaffaqiyati tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch" T.: Ma'naviyat-2008y. 63 b.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" Toshkent. 2011y. 112b.
3. Barotov SH.R. Ta'limda psixologik xizmat .Toshkent 1999.
4. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi.Diss:Psixol.fanl.dokt. Farg'ona. - 1994.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.:O'qituvchi, 1994.
6. To'raqulov E. Raximov S. Abu Rayxon Beruniy: ruhiyat va ta'lim - tarbiya xaqida - Toshkent.: O'qituvchi, 1992
7. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O'qituvchi.1992
8. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar.A.I. SHcherbakov taxriri ostida- T.: O'qituvchi, 1994
9. SHoumarov G'.B. Barotov SH.R. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat/ Xalq ta'limi jurnali. 1996. N 4. -B. 103-106.
10. SHoumarov G'.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, echimlar."Ma'rifat"ro'znomasi, 12 oktyabr, 1996 y. -B. 1-2.
11. SHoumarov G.B. Barotov SH.R. "Psixologik xizmat Nizomi"ga qo'shimchalar //Xalq ta'limi, 1997.